



SHAHAR YO'LOVCHI TRANSPORTINI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI VA YeChIMLARI

**Magistr talaba B.Abdulmaxammedov,
dotsent A.Normirzaev**

Namangan muhandislik qurilish instituti (NamMQI)

Namangan viloyati aholisining yo'lovchi transportiga bo'lgan ehtiyojini qondirish va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida 2021-2025 yillarga [1-12] mo'ljallangan rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Shahar yo'lovchi transportini rivojlantirish sohasida quyidagi vazifalar belgilandi:

- avtobus parkini to'ldirish, so'nggi yillarda qisqarib borayotgan muntazam avtobus yo'nalishlari tarmog'ini tiklash va keyinchalik kengaytirish imkonini beradi. Aholining mehnat va madaniy sayohatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlash uchun shahar va shahar atrofi yo'lovchi transporti yo'nalishlarini tiklash va rivojlantirishni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi;

- holati shahar yo'lovchi transportining yer usti turlarining ishlashini to'xtatib qo'ygan ko'cha va yo'l tarmog'ini rivojlantirish;-

- aholisi 150 mingdan ortiq bo'lgan shaharlarda elektr, ekologik toza transport turini rivojlantirish ustuvor bo'lishi kerak;

- trolleybus, tramvay va avtobuslarga bo'lgan favqulodda ehtiyojni qondirish uchun ushbu turdagi transport vositalarini mamlakatimizda ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadga muvofiq;-


- transport xizmatlari uchun hisoblangan tariflar asosida ijro etuvchi hokimiyat organlari va yo'lovchi avtotransport korxonalarini o'rtasida yo'lovchi tashishni amalga oshirish bo'yicha shartnomalarni majburiy ravishda tuzish tartibini federal darajada qonunlashtirish zarur;

- shahar va shahar atrofi yo'lovchi tashish transporti korxonalarini mahalliy soliqlarni to'lashdan to'liq yoki qisman ozod qilish amaliyotini kengaytirish;

- transport solig'ini avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar parkini yangilash uchun yetarli miqdorda ushlab turish.

Harakatdagi transportlar parkini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish boshlab yuboriladi, shahar yo'lovchi tashish transportining yer ustida ishlaydigan turlarini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasi tayyorlangan. Metropolitenning Yunusobod liniyasi birinchi navbatini foydalanishga topshirish, vagon tuzatish zavodini rekonstruksiya qilishni tugallash va Sirg'ali trolleybus zavodini ishga tushirish nazarda tutilmoqda.

Tumanlardan viloyat markazlariga qatnovchi avtobuslar eskirgani, ayrimlari xizmat muddatidan ortiq foydalanilayotgani ko'rsatib o'tildi. Avtobuslar bilan ta'minlanganlik darajasi har 100 ming aholiga 24 tani tashkil etadi. Bu ko'rsatkich





Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan va Andijonda 15 taga ham yetmaydi. Transport parkini yangilash uchun kelgusi yilda qo'shimcha 800 ta avtobusga ehtiyoj mavjud.

Yurtimizda ishlab chiqarilayotgan avtobuslarning narxi xorijnikiga nisbatan yuqori ekani, shu bois mahalliy lashtirish darajasini oshirib, avtobus va mikroavtobuslar narxini tushirish muhimligi ta'kidlandi.

Yo'lovchi tashuvchi korxonalar avtobus xarid qilish uchun oladigan kreditlar foizining Markaziy bank asosiy stavkasidan yuqori qismini qoplash va ularga kafillik berish tartibini joriy qilish topshirig'i berildi.

Viloyat hokimligi va mutasaddi vazirliklarga Namangan shahrida qulay transport tizimini yaratish bo'yicha Bosh reja loyihasini ishlab chiqilib. Unda yirik chorrahalarining o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish, alohida yo'lakli avtobuslar harakatini tashkil etish, ko'p o'rinli avtobuslar qo'yish va intervallarini qisqartirish choralari belgilanadi. Shuningdek, mamlakatimizdagi 30 ta shahar bo'yicha shunday bosh rejalar ishlab chiqiladi.

Aholi talabidan kelib chiqib, yangi yo'nalishlar ochish, mavjudlarini qayta ko'rib chiqish, avtobus bekatlarini rekonstruksiya qilish, bunga xususiy sektorni jalb qilish zarurligi ta'kidlandi. Bu boradagi chora-tadbirlar ijrosi joylarga chiqqan holda o'rganib borilishi, xalq deputatlari kengashlarida har uch oyda transport tizimi rahbarlarining hisobotlari eshitilib, aniq vazifalar qo'yilishi belgilandi. Sohaga oid qonunlarning bugungi kun talabiga javob bermaydiganlarini takomillashtirish zarurligi qayd etildi [1-8].

Unga ko'ra qo'yidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

Namangan shahrida transport oqimi yuqori bo'lgan 7 ta ko'chalar mavjud bo'lib, ularning transport o'tkazish qobiliyati normativ xujjatlar bo'yicha sutkasiga 28 ming donani tashkil etadi. Xaqiqatda esa bir kunlik transport oqimi yuqorida ko'rsatilgan ko'chalarda 60-80 mingtani tashkil etmoqda.

Shu bilan bir qatorda viloyat tumanlaridan bir kunda o'rtacha 25 mingta transport vositalari (o'rtacha 63,5 ming nafar yo'lovchi) Namangan shahriga kirib kelishi o'rganishlar davomida kuzatildi.

Bu o'z navbatida mazkur ko'chalarda transport oqimi zo'riqish bilan ishlayotganligini bildirmoqda.

Namangan shahrida 2016-2020 yillar davomida aholi soni 135 ming nafarga oshgani holda, transport vositalari soni ushbu davrda 43 ming donaga ko'paygan. Ya'ni aholi soni 27 foizga, transport vositalari soni 155 foizga ko'paygan.

Shuningdek, Namangan shahrida kuniga 3000 dan ortiq transport vositalarida 220 mingdan ortiq yo'lovchilar tashilib, shundan 90 mingdan ortiq yo'lovchilar 220 ta jamoat transporti orqali tashilmoqda.

Namangan shahrida aholi soni va transport oqimining keskin o'sayotganligi quyidagi muammolarni hal etishni taqazo qilmoqda [2,5,7,10-12]





1. Tirbandlik yuqori bo'lgan A.Navoiy, N.Namongoniy hamda G'alaba ko'chalarga parallel ko'chalarni ochish.

2. Ko'chalarning yo'l qismida transportlar parkovkalarini tartibga keltirish.

Namangan shahrining 7 ta ko'chasida faqatgina 10 ta avtoturargohlar mavjud xolos. Natijada mashinalarni yo'l yoqasida qoldirilishi natijasida sun'iy tirbandliklarni keltirib chiqarilmoqda.

3. Mavjud chorrahalarda xarakatni tashkil etishni takomillashtirish.

Ishchi guruh tomonidan o'tkazilgan o'rganishlarda quyidagi chorrahalarda xarakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'zgartirishlar kiritish lozimligi aniqlandi.

- I.Karimov va Mustaqillik ko'chalari kesishmasida transport vositalarining erkin harakatlanishini ta'minlash hamda ushbu chorrahada yo'l-transport hodisalarini oldini olish uchun chorrahada qo'shimcha yo'l bo'lagi (ilovadagi sxemaga asosan) qurish hamda Mustaqillik ko'chasini Issiqlik manbai ko'chasiga ulash;

- Namangan shahar N.Nomongoniy – B.Mashrab ko'chalari (Viloyat IIB chorrahasi) kesishmasidagi tirbandliklarni bartaraf etish uchun Bobur bog'i yo'nalishidan viloyat IIB chorrahasi yo'nalishida harakatlanib kelayotgan transport vositalariga 1-sonli shifoxona oldidan B.Mashrab ko'chasiga o'tuvchi qo'shimcha yo'l bo'lagi (ilovadagi sxemaga asosan) qurish;


- Namangan shahar hududidan o'tgan 4R 114 avtomobil yo'lining 5 km. bilan 4R 117 avtomobil yo'lining 20 km.lari kesishmasida mavjud (Nurobod) chorrahada yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida harakatni ilovadagi sxemaga asosan qayta tashkil etish;

- Namangan shahar A.Navoiy va Marg'ilon ko'chalari (SUM chorrahasi) kesishmasidagi tirbandliklarni bartaraf etish uchun Yoshlar markazi yo'nalishidan harakatlanib kelayotgan transport vositalarining Marg'ilon ko'chasiga o'tishi uchun qo'shimcha yo'l bo'lagi (ilovadagi sxemaga asosan) qurish;

- Namangan shahar «Sardoba» bozori atrofida yuzaga kelayotgan tirbandligini oldini olish, yo'lovchi tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi avtobus va mikroavtobuslarning bozor oldidagi bekatlarda erkin harakatlanishini ta'minlash maqsadida bozor oldidagi noqonuniy savdo rastalarini olib o'rnida avtobuslar kirib chiqish bo'lagini (ilovadagi sxemaga asosan) hamda bozor oldida piyodalar uchun yer usti piyodalar o'tish yo'lagi tashkil etish;

- Namangan shahar markaziy ko'chalarida yo'l harakatini tartibga soluvchi texnik vositalar (yo'l belgilari va chiziqlari, svetoforlar hamda yo'l to'siqlari)ni innovatsion texnologik jihozlari bilan jihozlash hamda uchun daraxt shoxlarini shakl berib butash orqali yo'l belgilarining ko'rinishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasi Yoshlar akademiyasi a'zolari X.Abduqahharov va N.Rejapovalarning "Zamonaviy smart piyodalar o'tish joyi" innovatsion loyihasini 2021 yilda Namangan shahrida qayta qurilishi rejalashtirilgan I.Karimov ko'chasida





joylashgan Namangan muhandislik qurilish institutining 2-binosi oldidagi tartibga solinmagan piyodalar o'tish joyida joriy etish;

4. Avtobus bekatlarini hamda yo'l yoqalaridagi reklama pannolarini tartibga keltirish.

Namangan shahrida 159 ta avtobus bekatlari mavjud bo'lib, ularning 25 tasida bekatlarni qurish normalariga amal qilinmagan holda qurilgan. Bekatlarning 13 foizi yoki 21 tasida alohida yo'l bo'lagi (karman) orqali tashkil etilgan xolos. Natijada transport oqimiga hamda jamoat transporti xarakatlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Normirzaev A.R., Tukhtabayev M.A., Mamirov U.X. Implementation of innovative ideas in digitization of the transport sector in Namangan region / Scientific and technical journal of NamIET / NamMTI ilmiy-texnika jurnali. – Namangan: NamMTI, 2021. – 6 (3), – B. 127-132.

2. Tokhtaboyev M.A., Mekhmonaliyev I., Mamasoliyev Kh.O. (2021). Establishment of intercity transportation system. *Obrazovanie i nauka v XXI veke.* – Kemerovo, 13(3), – S. 770-773.

3. To'xtaboyev M.A., Tumanbayeva B. Shorrahadagi transport va piyoda harakatlanishini o'rganish. *Transport i logistika: Sifrovые texnologii v razvitii transportno-tranzitnogo potentsiala respubliki: Sbornik materialov Respublikanskoy nauchno-texnicheskoy konferensii.* – Toshkent: 2021. – B. 1069-1073.

4. Tukhtabayev M.A., Nuriddinov A.D., Tumanbayeva B.I. Transport and pedestrian traffic at intersection of j.manguberdi and go'zal narrow streets / Scientific and technical journal of NamIET / NamMTI ilmiy-texnika jurnali. – Namangan: NamMTI, 2021. – 6 (3), – B. 221-228.

5. To'xtaboyev M., Ataxanov X. Hakimov R. Shorrahaldagi tirbandlikni oldini olish. *Transport i logistika: Sifrovые texnologii v razvitii transportno-tranzitnogo potentsiala respubliki: Sbornik materialov Respublikanskoy nauchno-texnicheskoy konferensii.* – Toshkent: 2021. – B. 1065-1069.

6. Egamberdiyev B.S. Normirzayev A.R., Dadabayev D.R. Analysis of passenger transportation system by routes. *Jurnal Obrozovaniya i nauka XXI veke.* 2021. Tom 3. №13. 774-778 str.

7. Mamirov U., Tuxtabaev M., Raxmonov B. Vajnost razvitiya proekta velodorojki v Namangane. *Yestestvennonauchnyy jurnal «Tochnaya nauka».* – Kemerovo, 2022. Vypusk 129, – S. 12-17. www.t-nauka.ru

8. Tuxtabaev M.A., Turgunov I.B. Probki na peresechenii ulis Navoi i Kokand. *Yestestvennonauchnyy jurnal «Tochnaya nauka».* – Kemerovo, 2022. Vypusk 129, – S. 5-8. www.t-nauka.ru





9. A.Normirzaev A.Ustaboev .Tirbandlik sabablari va uni oldini olish. NTJ NamITI. 2020. Tom 5. № 1. 292-296 str.

10. To'xtaboev M.A., Mehmonaliev I.I., Baxriddinov Q.B. Shaharlararo yuk tashish tizimini rivojlantirishning tendensiyalari. Xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami: Mashinasozlikda innovatsiyalar, energiyatejamkor texnologiyalar va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish (NamMQI, 28-29 may). – Namangan, 1-qism, 2021. – C. 121-124.

11. AR Normirzayev, Sh O Azimjanov, MO Yusupjonov. Establishment Of Intercity Passenger Transportation System. Ekonomika i sotsium. 2021. №5-1. 362-364 str.

12. D.R.Dadabaev A.R.Normirzaev, Sh.O.Azimjonov. Shahar yo'lovchilar transporti tizimini rivojlantirish muammolari. "Mashinasozlikda innovatsiyalar, energiyatejamkor texnologiyalar va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish" konferensiya materiallari. 2021. Tom 2. 292-296 betla

